



XALQ DEPUTATLARI TOYLOQ TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 30-mart

VI-89-35-7-104-K/24

Toyloq tumani

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2024-yil 29-yanvardagi “2024-yilda uy-joy, qurilish, kommunal xo‘jaligi, transport va ekologiya yo‘nalishlari bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi hamda vazirlik va idoralarning ustuvor vazifalari”ga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari S.Eraliyevning hisoboti haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2024-yil 29-yanvardagi “2024-yilda uy-joy, qurilish, kommunal xo‘jaligi, transport va ekologiya yo‘nalishlari bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi hamda vazirlik va idoralarning ustuvor vazifalari”ga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida berilgan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida, tumanda uy-joy va kommunal xo‘jaligi, qurulish, transport hamda ekologiya sohalarida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari S.Eraliyevning hisoboti eshitilib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining sakson to‘qqizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2024-yil 29-yanvardagi “2024-yilda uy-joy, qurilish, kommunal xo‘jaligi, transport va ekologiya yo‘nalishlari bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi hamda vazirlik va idoralarning ustuvor vazifalari”ga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari S.Eraliyevning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosari (S.Eraliyev) va tegishli mas’ul tashkilot va korxona rahbarlariga:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrdagi PQ-404-soni qarorlariga asosan yangi quriladigan, rekonstruksiya va mukammal ta’mirlash ob’ektlar va inshootlarni o‘z vaqtida foydalanishga topshirish choralarini ko‘rish;

belgilangan qurilish va ta'mirlash ishlarini belgilangan loyiha-smeta hujjatlariga asosan qurilishini nazorat qilish;

tumanda davlat dasturi doirasida rejalashtirilgan qurilish-ta'mirlash, obodonlashtirish ishlarini sifatlari va o'z muddatida yakunlash;

tumanda 2024-yilda uy-joyga talab yuqori bo'lgan hamda muhandislik kommunikatsiya tarmoqlariga ega bo'lgan hududlarda ko'p qavatli uy-joylarni qurish va foydalanishga qabul qilish;

tumanda ko'p qavatli uy-joylarga xizmat qiluvchi boshqaruvi servis kompaniyalari faoliyati samarali olib borilishini ta'minlash hamda ularning debitor qarzdorligini so'ndirishga ko'maklashish;

tuman hududida ta'mirlash rejasiga kiritilgan ichimlik suvi tarmoqlarini rekonstruksiya qilish hamda ichimlik suvi tarmog'iga ulanmagan hududlarni ichimlik suvi tarmog'iga ularash;

tuman hududidagi aholi punktlarida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan o'zboshimchalik bilan noqonuniy ravishda qurilgan qurilmalarni aniqlab, ularni bartaraf qilish kabi vazifalar yuklatilsin.

3. Tuman hokiminining o'rribbosari (S.Eraliyev), tuman Elektr tarmoqlari korxonasi (A.Siddiqov), "Toyloqtumangaz" gaz ta'minoti bo'limi (Y.Daminov)larga:

elektr ta'minoti yuzasidan tasdiqlangan grafikka qattiq amal qilish, hududlarda doimiy monitoring tizimi tashkil qilinib, elektr taminoti hamda gaz ta'minotida noqonuniy tarmoqqa ulanish holatlarini aniqlab, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish (aholi xonadonlarini tarmoqdan o'zmagan holatda);

tuman hududida aholini gaz bilan ta'minlash bo'yicha gaz tarmoqlarini tartibga keltirish, gaz taqsimlash qurilmalarini ta'mirlash, gaz tarmog'idan uzilgan hududlarga suyultirilgan gaz balonlarini uzliksiz ravishda yetkazish;

tuman hududidagi elektr tarmog'i liniyalarini ta'mirlash hamda eskirgan transformator punktlarini mukammal ta'mirlash yoki yangidan o'rnatish choralarini ko'rish;

tumandagi tadbirkorlik su'bektlarini uzlusiz lokal muqobil energitika bilan ta'minlash;

tuman hokimligida tashkil etilgan kuz-qish mavsumini betalofat o'tkazish bo'yicha shtabga tushgan murojaatlar tahlili hamda shtab a'zolari tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar bilan o'z vaqtida bajarilishi hamda viloyat shtabiga ma'lumotlari o'z vaqtida taqdim qilib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi (U.Ochilov)ga yong'inga qarshi kurashish choralarini ko'rish, har bir mahallada yong'in xavfsizligi bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish choralarini ko'rsin.

5. Tuman ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi inspeksiyasi (J.Norov)ga:

umumiyo foydalanishdagi avtomobil yo'llari bo'yida "yashil belbog'" yaratish;

“Hokimlik bog‘i” va “Yashil bog” hududiga tasdiqlangan loyihalar asosida manzarali ko‘chatlarni ekish ishlarini yakunlash;

ekilgan ko‘chatlarni sug‘orish, zararkunandalardan saqlash hamda ularning nobud bo‘lishining oldini olish;

“Hokimlik bog‘i” va “Yashil bog” hududida doimiy obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini tashkil etib borish;

tashkil etilgan “Hokimlik bog‘i” va “Yashil bog” hududidagi har bir daraxtlarni shikastlantirish va nobud qilganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini yanada oshirish

“Yashil makon” dasturi doirasida bahor va kuz mavsumlarida manzarali va mevali daraxt ko‘chatlari ekish choralarini ko‘rish vazifalari yukaltilsin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati (N.Raxmatova), “Qo‘schinor” gazetasi (M.Yuldasheva) mazkur qaror ijrosi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni ommaviy axborot vositalar orqali yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (X.Tog‘ayev) hamda tuman hokiminining o‘rribbosari(S.Eraliyev) zimmalariga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi



YULDASHOVA
MUTABAR
ABDUMANONOVNA